


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga olindi**

№ _____
2014 yil 20 avgust 2014000276

**Institut Kengashining
№1-sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN
(2014 yil 22 avgust)**



BUDJET TIZIMI

ISHCHI O'QUV DASTURI

Oliy ta'limning

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta'lim mutaxassisligi:	5A231301	–	Pensiya ishi

Toshkent-2014

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

Karimova Z.X.– Toshkent moliya instituti “G’aznachilik ishi” kafedrasini faxriy professori, i.f.n

Taqrizchilar:

Haydarov N.H.- Toshkent moliya instituti, ilmiy ishlar bo'yicha institut prorektori, i.f.d., prof. (ichki).

D.Pulatov- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish bo'limi boshlig'i, dotsent, i.f.n. (tashqi).

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2014 yil 10 iyun dagi 20 sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

A. Botirov

Fanning ishchi o'quv dasturi Byudjet hisobi va davlat jamg'armalari fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2014 yil 12 iyun dagi 11 -sonli qarori).

Fakultet dekani

Sh. Allayarov

Kelishildi:

**O'quv ishlari bo'yicha
prorektor**

A. Karimov

KIRISH

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

“Budjet tizimi” fanini o’qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo’lib etishadigan magistrantlar budjet tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari, budjet jarayoni, turli darajadagi budjetlarni, budjet daromadlari va xarajatlarini, budjet holatini boshqarish, budjet tizimida g’aznachilikni rivojlanishi, budjet nazorati haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi budjet tizimidagi islohotlarning asosiy yo’nalishlari bo’yicha ko’nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o’z predmetini o’rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo’yadi:

- budjet qurilishi va budjet tizimining nazariy-tashkiliy jihatlarini o’rganish;
- budjet jarayonini tashkil etish uslublarini o’rganish;
- mahalliy budjetlar barqarorligi va turli darajadagi budjetlarni boshqarishni samarali tashkil etishni o’rganish;
- budjet tizimida g’aznachilikning rivojlanish istiqbollari o’rganish;
- davlat budjeti daromadlari, xarajatlari va holatini boshqarishni o’rganish;
- budjet nazoratini samarali tashkil etishni o’rganish

Har bir mavzu yakunida axborot va pedagogik texnologiyalari keltirilgan hamda ularni qo’llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o’quv-uslubiy majmua(O’UM)da bayon etilgan.

1.2. Fanni o’zlashtirgan talabning malakaviy darajasi:

- budjet qurilishi va budjet tizimining tashkiliy-huquqiy jihatlarini;
- budjet tizimi bo’g’inlari faoliyati tahlilini tashkil etish;
- budjet tizimini operativ, joriy va istiqbolli rejalashtirishni tashkil etish, budjet loyihasini tayyorlash;
- davlat budjeti ijrosi, mahalliy budjetlar ijrosi asosida davlat moliyasi holatini tahlil etish;
- budjet tizimi bo’g’inlari budjet majburiyatlari va ular daromad bazalari dinamikasini tahlil qila olish;
- budjet tizimi bo’g’inlari moliyaviy imkoniyatlarini baholash;
- budjet nazorati va uni samaradorligini oshirish haqidagi tasavvur va malakaga ega bo’ladi.

1.3. Fanning o’quv rejasidagi fanlar bilan bog’liqligi

“Budjet tizimi” fani institutda o’rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog’liqdir. “Budjet tizimi” fani bakalavriat bosqichida o’rganilgan “Mahalliy budjet”, “Davlat budjeti”, “G’aznachilik”, “Xalqaro moliya munosabatlari”, magistraturaning “Xalqaro moliya”, “Davlat moliyasini boshqarish” kabi fanlardan

olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga, “Budjet tizimi” fani magistraturadagi qator maxsus fanlar, jumladan, “Davlat budjetining ijrosi”, “Budjetlararo munosabatlar” kabi fanlarni o’zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko’rib o’tilganlardan tashqari, “Budjet tizimi” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish jarayonida kafedrada mavjud bo’lgan videofilmlardan, slayd va boshqa o’quv materiallaridan foydalaniladi.

Har bir mavzu yakunida ta’lim texnologiyalari keltirilgan va ularni qo’llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o’quv-uslubiy majmua(O’UM)da bayon etilgan.

1.4. Fanni o’qitishda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun-mohiyati

“Budjet tizimi” fanining *ma’ruza mashg’ulotlarida* ma’lumotlarni ko’rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali:

- mustaqil o’qish, ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.
- oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o’zaro bog’lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog’lash):

Ma’lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g’oyalarni yig’ish.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko’ra olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko’nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval:

O’rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo’yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko’nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo’lim) bo’yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko’nikmalarini beradi.

T-jadval:

Bita kontseptsiya (ma’lumot)ning jihati o’zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo’lib, loyiha, ma’lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g’oya, fikr.

“Budjet tizimi” fanining **amaliyot mashg’ulotlarida** muammoni jamoali tarzda xal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo’yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U magistrantlarni o’quv jarayonida mashg’ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog’ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o’z fikrlarini aytishga yo’naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O’z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to’g’ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi:

Muammoni xal etish buyicha g’oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni xal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo’yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakteristikalar algoritmgaga muvofiq ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi.

Keys stadi.:

Talabalarni qaror qabul qilishga o’rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o’rganish metodi.

Talabalarga ushbu fanni o’zlashtirishda mavjud o’quv adabiyotlaridan, elektron darslik, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

I. “Budjet tizimi” fanidan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga 5A231301 – “Pensiya ishi” yo‘nalishi uchun ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti:

№	Mavzular nomi	Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
1- semestr					
1.	“Budjet tizimi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2	-	-
2.	Budjet qurilishi va budjet tizimi: tashkil etish, modellari	6	2	2	2
3.	O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi	12	4	4	4
4.	Respublika budjeti: daromadlari va xarajatlari tavsifi	10	2	4	4
5.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, maxalliy budjetlar: daromadlari va xarajatlari tavsifi	12	4	4	4
6.	Budjetlararo munosabatlar: tashkil etish va rivojlanish yo‘nalishlari	12	4	4	4
7.	O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining rivojlanish bosqichlari	12	4	4	4
8.	O‘zbekiston Respublikasi budjet qonunchiligi	12	4	4	4
9.	Budjet jarayoni uslubiyoti	6	2	2	2
10.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyahasini tuzish: tashkil etish va isloh qilish	18	6	6	6
11.	Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar loyahasini tayyorlash: tashkil etish va isloh qilish	12	4	4	4
12.	Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni ko‘rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash: tashkil etish va isloh qilish	6	2	2	2
	Jami	120	40	40	40
2- semestr					
13.	Budjet tizimi budjetlari ijrosi va ijrosi nazorati: tashkil etish va isloh qilish	18	6	6	6
14.	Budjet ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash	6	2	2	2
15.	Budjet tizimi budjetlari daromadlarini optimallashtirish yo‘llari va xarajatlarini takomillashtirish yo‘nalishlari	6	2	2	2
16.	Davlat maqsadli fondlari: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari	24	8	8	8

17.	Davlat qarzini boshqarish: hozirgi amaliyoti va rivojlanish yo'nalishlari	6	2	2	2
	Jami	60	20	20	20
	Hammasi	180	60	60	60

2. O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI

2.1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

2.1.1. "Budjet tizimi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari (2-soat)

"Budjet tizimi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. "Budjet tizimi" fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Davlat moliyasini isloh qilish va boshqarishda budjet tizimining o'rni va ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *insert jadvali, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A8, Q3, Q5]

2.1.2. Budjet qurilishi va budjet tizimi: tashkil etish, modellari (2-soat)

Budjet qurilishi va budjet qurilishining modellari. Markazlashgan, markazlashmagan va aralash modellarning o'ziga xos xususiyatlari. Turli davlat qurilishi shakllarida budjet tizimining amal qilishi. Turli darajadagi budjetlarni tashkil etish va tuzish tamoyillari. Budjet tizimining asosiy tamoyillarining amal qilishi. Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashuvi. Budjet tizimida budjetdan mablag' oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar. Budjet tizimini tashkil etilishida xorij tajribalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A8, A9, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.1.3. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi (4-soat)

Budjet tizimi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi qurilishining asoslari. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilishi modeli. Budjet tizimi printsiplari. Budjet tizimini boshqarishda budjet tizimi printsiplariga amal qilinishi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining amaldagi holati. Budjet tizimi budjetlari: davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari. Respublika budjetini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Mahalliy budjetlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va tarkibi. Mahalliy budjetlarni balanslashtirishning o'ziga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti va tarkibi. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetining

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A5, A8, A9, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.1.4. Respublika budjeti: daromadlari va xarajatlari tavsifi (2-soat)

Budjet qonunchiligida respublika budjeti daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini moliyalashtirish hamda tartibga solish masalalari. Respublika budjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi. Umumdavlat soliqlarining respublika budjeti daromadlarini shakllanishidagi ahamiyati. Respublika budjeti boshqa daromadlari tarkibi. Respublika budjeti xarajatlari tarkibi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasi. Respublika budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish va unga mas'ul moliya organlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A5, A6, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.1.5. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar: daromadlari va xarajatlari tavsifi (4-soat)

Budjet qonunchiligida Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar xarajatlarini moliyalashtirish hamda tartibga solish masalalari. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini tartibga solish. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va yig'implarning ahamiyati. Budjet amaliyotida davlat budjeti jami daromadlari va xarajatlarida mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zgarish tendentsiyasi. Mahalliy budjetlar zaxira jamg'armasi. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini boshqarish va unga mas'ul moliya organlari. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash. Hududlar moliyaviy imkoniyatlari va mahalliy budjetlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.1.6. Budjetlararo munosabatlar: tashkil etish va rivojlanish yo'nalishlari (4-soat)

Budjetlararo munosabatlarning mohiyati va zarurligi. Budjetlararo munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Budjetlararo munosabatlarni samarali boshqarishga oid davlat siyosati va uning vazifalari. Budjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish tartibi. Budjetlararo transfertlar shakllari. Budjetlararo transfertlarni o'tkazish tartibi. Mahalliy budjetlarda aylanma kassa mablag'lari me'yori. Mahalliy budjetlarga

qo'llaniladigan cheklovlar. Mahalliy budjetlarning balanslilikini ta'minlashning ahamiyati, tamoyillari va omillari. Mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlari. Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish borasida jahon tajribalari. Budjetlararo munosabatlarning samarali shakllari va usullaridan O'zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A9, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.7. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining rivojlanish bosqichlari (4-soat)

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi budjetining rivojlanish jarayoni. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida budjet tizimi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimini rivojlanishida fiskal bosqich. Fiskal bosqichning muhim vazifalari. Fiskal bosqichda budjetni isloh etish masalalari. Fiskal bosqichda davlat budjeti daromadlar qismidagi o'zgarishlar. Budjet tizimining makroiqtisodiy holatni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan noinflyatsion rivojlanish bosqichi va muhim vazifalari. Budjet tizimining Davlat moliyasini isloh qilish doirasida rivojlanishi. Budjet tizimining Davlat moliyasini isloh qilish doirasida rivojlanishi bosqichning muhim vazifalari. Budjetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish. Budjet ko'rsatkichlarini o'rta muddatli rejalashtirishga o'tish istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.8. O'zbekiston Respublikasi budjet qonunchiligi (4-soat)

O'zbekiston Respublikasi budjet qonunchiligi va huquqi. Budjet qonunchiligining budjet tizimini tartibga solishdagi ahamiyati. Budjet munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar. Budjet tizimi islohotlari doirasida budjet qonunchiligidagi o'zgarishlar. Budjet kodeksi, uning budjet tizimini boshqarish va tartibga solishdagi ahamiyati. Soliq kodeksi, uning budjet tizimi budjetlari daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimini boshqarishda amal qiluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar. Budjet tizimi islohotlari doirasida budjet qonunchiligining takomillashuvi. Keng ko'lamli islohotlar sharoitida budjet qonunchiligini mustahkamlash masalalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A10, Q1, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.9. Budjet jarayoni uslubiyoti (2-soat)

Budjet jarayoni, uning o'ziga xos xususiyatlari. Budjet jarayonining asosiy vazifalari. Budjetni prognozlashtirish va rejalashtirish. Budjet faoliyatining

bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi budjetini shakllanish mexanizmi: budjet so'rovi, budjetnoma, budjetni prognozlashtirish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ijro etish, budjetni g'azna ijrosi, budjet nazorati, budjet ijrosi bo'yicha hisoboti. Vakillik va ijroiya xokimiyati organlarining budjet jarayonidagi ishtiroki. Budjetdan mablag' oluvchilarning budjet jarayonidagi ishtiroki.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.10. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihasini tuzish: tashkil etish va isloh qilish (6-soat)

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlarini rejalashtirish. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlarini rejalashtirishning huquqiy asoslari. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlarini rejalashtirishning asosiy tamoyillari. Mahalliy budjetlar loyihalarini tuzish va maqsadlari. Mahalliy budjetlar loyihasini tuzishda amal qilinadigan me'yoriy hujjatlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar loyihasini tuzishda budjetdan mablag' oluvchilarning ishtiroki. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihalarini tayyorlash muddatlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihalarini ishlab chiqish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.11. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlash: tashkil etish va isloh qilish (4-soat)

Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlashning maqsadi. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlashning vazifalari. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlashda amal qilinadigan me'yoriy hujjatlar. Budjetnoma va uning tarkibi. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar. Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tuzishda maqsadli jamg'armalar ishtirokining ahamiyati. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tuzishda budjetdan mablag' oluvchilarning ishtiroki. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini ishlab chiqish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A4, A5, A6, A7, A8, A10, Q2, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.12. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash: tashkil etish va isloh qilish (2-soat)

Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ko'rib chiqish. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni qabul qilish. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni tasdiqlash. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari budjetlarini etkazish. O'zbekiston Respublikasining Favqulotda Davlat budjeti.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.13. Budjet tizimi budjetlari ijrosi va ijrosi nazorati: tashkil etish va isloh qilish (6-soat)

Budjet tizimi budjetlari ijrosining mohiyati. Budjet tizimi budjetlarini ijro etish tartibi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi. Budjet tizimi budjetlari daromad qismining ijrosi. Budjet tizimi budjetlari xarajatlar qismining ijrosi. Budjet tizimi budjetlari ijrosini tashkil etishdagi islohotlar. G'aznachilik tizimida davlat budjeti daromadlari va xarajatlar ijrosi uslubiyoti. G'aznachilik tizimining budjetni ijro etishdagi afzalliklari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining budjet ijrosini ta'minlashdagi vazifalari. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti g'azna ijrosining hozirgi holati: yuridik va moliyaviy majburiyatlar, narxlar monitoringi, to'lovlarni amalga oshirish va boshqalar. Budjet tizimi budjetlari ijrosi nazoratining maqsadi va vazifalari. Budjet nazorati mexanizmi. Budjet nazorati printsiplari. Budjet nazoratining tasnifi. Davlat moliyaviy nazorati va printsiplari. Davlat moliyaviy nazorati shakllari, turlari va usullari. Davlat moliyaviy nazorati organlari: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. Davlat moliyaviy nazorati organlari vazifalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q6, Q7]

2.1.14. Budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash (2-soat)

Budjet hisobi va hisobotini yuritish tartibi. Budjet hisoboti turlari. Budjet tashkilotlarining va budjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy hisobotlari. Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tasdiqlash tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, Q1, Q2, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.15. Budjet tizimi budjetlari daromadlarini optimallashtirish yo'llari va xarajatlarini takomillashtirish yo'nalishlari (2-soat)

Budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi sharoitida davlat budjeti daromadlarini boshqarish masalalari. Budjet tizimi budjetlari daromatlari bazasini mustahkamlash yo'llari. Xarajatlar ijrosini amalga oshirishda g'aznachilikning o'rni va ahamiyati. G'aznachilikning yagona g'azna hisobvarag'i orqali budjet xarajatlarini boshqarish masalalari. Budjet tizimi budjetlari xarajatlarini boshqarishda nazorat mexanizmini takomillashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A6, A7, A8, Q1, Q2, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.16. Davlat maqsadli fondlari: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari (8-soat)

Davlatning maqsadli fondlarining zarurligi, mohiyati va ahamiyati. Davlatning maqsadli fondlarining vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromatlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromatlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromatlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromatlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromatlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi. O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi. Davlatning maqsadli fondlari daromad bazalarini mustahkamlash va xarajatlarini optimallashtirish. Davlat maqsadli fondlari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A1, A2, A3, A4, A8, Q2, Q3, Q4, Q6, Q7]

2.1.17. Davlat qarzini boshqarish: hozirgi amaliyoti va rivojlanish yo'nalishlari (2-soat)

Davlat qarzi tushunchasi, iqtisodiy mazmuni va tarkibiy tuzilishi. Davlat tomonidan mablag' jalb. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish turlari. O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari. Davlat qimmatli qag'ozlari va ularning tasnifi. Davlat qarzini boshqarish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *klaster, toifali jadval, kontseptual jadval.*

[A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q5, Q6, Q7]

2.2. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

2.2.1. Budjet qurilishi va budjet tizimi: tashkil etish, modellari (2-soat)

Budjet qurilishi va budjet qurilishining modellari. Markazlashgan, markazlashmagan va aralash modellarning o'ziga xos xususiyatlari. Turli davlat qurilishi shakllarida budjet tizimining amal qilishi. Turli darajadagi budjetlarni tashkil etish va tuzish tamoyillari. Budjet tizimining asosiy tamoyillarining amal qilishi. Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashuvi. Budjet tizimida budjetdan mablag' oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar. Budjet tizimini tashkil etilishida xorij tajribalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs.*

[A1, A2, A3, A4, A8, A9, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.2.2. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi (4-soat)

Budjet tizimi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi qurilishining asoslari. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilishi modeli. Budjet tizimi printsiplari. Budjet tizimini boshqarishda budjet tizimi printsiplariga amal qilinishi. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining amaldagi holati. Budjet tizimi budjetlari: davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari. Respublika budjetini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Mahalliy budjetlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va tarkibi. Mahalliy budjetlarni balanslashtirishning o'ziga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti va tarkibi. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A5, A8, A9, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.2.3. Respublika budjeti: daromadlari va xarajatlari tavsifi (4-soat)

Budjet qonunchiligida respublika budjeti daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini moliyalashtirish hamda tartibga solish masalalari. Respublika budjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi. Umumdavlat soliqlarining respublika budjeti daromadlarini shakllanishidagi ahamiyati. Respublika budjeti boshqa daromadlari tarkibi. Respublika budjeti xarajatlari tarkibi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasi. Respublika budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish va unga mas'ul moliya organlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A5, A6, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.2.4. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, maxalliy budjetlar: daromadlari va xarajatlari tavsifi (4-soat)

Budjet qonunchiligida Qoraqalpog'ist on Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar xarajatlarini moliyalashtirish hamda tartibga solish masalalari. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini tartibga solish. Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va yig'imlarning ahamiyati. Budjet amaliyotida davlat budjeti jami daromadlari va xarajatlarida mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining o'zgarish tendentsiyasi. Mahalliy budjetlar zaxira jamg'armasi. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini boshqarish va unga mas'ul moliya organlari. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash. Hududlar moliyaviy imkoniyatlari va mahalliy budjetlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q7]

2.2.5. Budjetlararo munosabatlar: tashkil etish va rivojlanish yo'nalishlari (4-soat)

Budjetlararo munosabatlarning mohiyati va zarurligi. Budjetlararo munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Budjetlararo munosabatlarni samarali boshqarishga oid davlat siyosati va uning vazifalari. Budjetlarning darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarni o'tkazish tartibi. Budjetlararo transfertlar shakllari. Budjetlararo transfertlarni o'tkazish tartibi. Mahalliy budjetlarda aylanma kassa mablag'lari me'yori. Mahalliy budjetlarga qo'llaniladigan cheklovlar. Mahalliy budjetlarning balansliligini ta'minlashning ahamiyati, tamoyillari va omillari. Mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlari. Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish borasida jahon tajribalari. Budjetlararo munosabatlarning samarali shakllari va usullaridan O'zbekiston Respublikasida foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A9, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.2.6. O'zbekiston Respublikasi budget tizimining rivojlanish bosqichlari (4-soat)

O'zbekiston Respublikasi budget tizimining rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi budgetining rivojlanish jarayoni. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida budget tizimi. O'zbekiston Respublikasi budget tizimini rivojlanishida fiskal bosqich. Fiskal bosqichning muhim vazifalari. Fiskal bosqichda budgetni isloh etish masalalari. Fiskal bosqichda davlat budgeti daromadlar qismidagi o'zgarishlar. Budget tizimining makroiqtisodiy holatni barqarorlashtirishga yo'naltirilgan noinflyatsion rivojlanish bosqichi va muhim vazifalari. Budget tizimining Davlat moliyasini isloh qilish doirasida rivojlanishi. Budget tizimining Davlat moliyasini isloh qilish doirasida rivojlanishi bosqichning muhim vazifalari. Budgetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish. Budget ko'rsatkichlarini o'rta muddatli rejalashtirishga o'tish istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*
[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.2.7. O'zbekiston Respublikasi budget qonunchiligi (4-soat)

O'zbekiston Respublikasi budget qonunchiligi va huquqi. Budget qonunchiligining budget tizimini tartibga solishdagi ahamiyati. Budget munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar. Budget tizimi islohotlari doirasida budget qonunchiligidagi o'zgarishlar. Budget kodeksi, uning budget tizimini boshqarish va tartibga solishdagi ahamiyati. Soliq kodeksi, uning budget tizimi budjetlari daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi budget tizimini boshqarishda amal qiluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar. Budget tizimi islohotlari doirasida budget qonunchiligining takomillashuvi. Keng ko'lamli islohotlar sharoitida budget qonunchiligini mustahkamlash masalalari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*
[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A10, Q1, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.2.8. Budget jarayoni uslubiyoti (2-soat)

Budget jarayoni, uning o'ziga xos xususiyatlari. Budget jarayonining asosiy vazifalari. Budgetni prognozlashtirish va rejalashtirish. Budget faoliyatining bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi budgetini shakllanish mexanizmi: budget so'rovi, budgetnoma, budgetni prognozlashtirish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ijro etish, budgetni g'azna ijrosi, budget nazorati, budget ijrosi bo'yicha hisoboti. Vakillik va ijroiya xokimiyati organlarining budget jarayonidagi ishtiroki. Budgetdan mablag' oluvchilarning budget jarayonidagi ishtiroki.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*
[A1, A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.2.9. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihasini tuzish: tashkil etish va isloh qilish (6-soat)

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlarini rejalashtirish. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlarini rejalashtirishning huquqiy asoslari. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlarini rejalashtirishning asosiy tamoyillari. Mahalliy budjetlar loyihalarini tuzish va maqsadlari. Mahalliy budjetlar loyihasini tuzishda amal qilinadigan me'yoriy hujjatlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar loyihasini tuzishda budjetdan mablag' oluvchilarning ishtiroki. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihalarini tayyorlash muddatlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihalarini ishlab chiqish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.2.10. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlash: tashkil etish va isloh qilish (4-soat)

Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlashning maqsadi. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlashning vazifalari. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlashda amal qilinadigan me'yoriy hujjatlar. Budjetnoma va uning tarkibi. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar. Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tuzishda maqsadli jamg'armalar ishtirokining ahamiyati. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tuzishda budjetdan mablag' oluvchilarning ishtiroki. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini ishlab chiqish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A7, A8, A10, Q1, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.2.11. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash: tashkil etish va isloh qilish (2-soat)

Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ko'rib chiqish. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni qabul qilish. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni tasdiqlash. Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari budjetlarini etkazish. O'zbekiston Respublikasining Favqulotda davlat budjeti.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.12. Budjet tizimi budjetlari ijrosi va ijrosi nazorati: tashkil etish va isloh qilish (6-soat)

Budjet tizimi budjetlari ijrosining mohiyati. Budjet tizimi budjetlarini ijro etish tartibi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi. Budjet tizimi budjetlari daromad qismining ijrosi. Budjet tizimi budjetlari xarajatlar qismining ijrosi. Budjet tizimi budjetlari ijrosini tashkil etishdagi islohotlar. G'aznachilik tizimida davlat budjeti daromadlari va xarajatlar ijrosi uslubiyoti. G'aznachilik tizimining budjetni ijro etishdagi afzalliklari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining budjet ijrosini ta'minlashdagi vazifalari. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti g'azna ijrosining hozirgi holati: yuridik va moliyaviy majburiyatlar, narxlar monitoringi, to'lovlarni amalga oshirish va boshqalar. Budjet tizimi budjetlari ijrosi nazoratining maqsadi va vazifalari. Budjet nazorati mexanizmi. Budjet nazorati printsiplari. Budjet nazoratining tasnifi. Davlat moliyaviy nazorati va printsiplari. Davlat moliyaviy nazorati shakllari, turlari va usullari. Davlat moliyaviy nazorati organlari: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi. Davlat moliyaviy nazorati organlari vazifalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A4, A5, A6, A7, A8, A10, Q2, Q3, Q4, Q6, Q7]

2.1.13. Budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash (2-soat)

Budjet hisobi va hisobotini yuritish tartibi. Budjet hisoboti turlari. Budjet tashkilotlarining va budjetdan mablag' oluvchilarning moliyaviy hisobotlari. Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tasdiqlash tartibi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A7, A8, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.14. Budjet tizimi budjetlari daromadlarini optimallashtirish yo'llari va xarajatlarini takomillashtirish yo'nalishlari (2-soat)

Budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi sharoitida davlat budjeti daromadlarini boshqarish masalalari. Budjet tizimi budjetlari daromadlari bazasini mustahkamlash yo'llari. Xarajatlar ijrosini amalga oshirishda g'aznachilikning o'rni va ahamiyati. G'aznachilikning yagona g'azna hisobvarag'i orqali budjet xarajatlarini boshqarish masalalari. Budjet tizimi budjetlari xarajatlarini boshqarishda nazorat mexanizmini takomillashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A7, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.15. Davlat maqsadli fondlari: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari (8-soat)

Davlatning maqsadli fondlarining zarurligi, mohiyati va ahamiyati. Davlatning maqsadli fondlarining vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromadlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromadlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromadlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromadlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi: tashkiliy-huquqiy asoslari, daromadlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi. O'zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi. Davlatning maqsadli fondlari daromad bazalarini mustahkamlash va xarajatlarini optimallashtirish. Davlat maqsadli fondlari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A8, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

2.1.16. Davlat qarzini boshqarish: hozirgi amaliyoti va rivojlanish yo'nalishlari (2-soat)

Davlat qarzi tushunchasi, iqtisodiy mazmuni va tarkibiy tuzilishi. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish turlari. O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari. Davlat qimmatli qag'ozlari va ularning tasnifi. Davlat qarzini boshqarish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *aqliy hujum, baxs, muzokaralar.*

[A1, A2, A3, A4, A6, A10, Q2, Q3, Q4, Q5, Q6, Q7]

3.1. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'lim magistrantlar uchun majburiy o'quv mashg'uloti hisoblanadi va rejali xususiyatga ega. Mustaqil ta'limning mavzulari magistrantlar uchun mustaqil o'rganishlari shart bo'lgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlardan tashkil topgan. U magistrantlarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirishga, o'qitilayotgan va o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishga hamda dunyoqarashini yana ham kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil

ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar (mavzular) ma'ruzalar mavzulari, amaliy, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari, magistrantlar ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirishlari natijasida, referat yoki ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin.

“Budjet tizimi” fani bo'yicha mustaqil ta'limning mazmuni

Fani bo'yicha mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari
“Budjet tizimi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	Budjet tizimi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi	keys stadi tayyorlash	amaliy mashg'ulot davomida
Budjet qurilishi va budjet tizimi: tashkil etish, modellari	Budjet qurilishi va budjet tizimi modellari	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi	O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi tuzilishi	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
Respublika budjeti: daromadlari va xarajatlari tavsifi	Respublika budjetining daromadlari va xarajatlarini boshqarish	referat, taqdimot	oralik nazoratda
Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, maxalliy budjetlar: daromadlari va xarajatlari tavsifi	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, maxalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini boshqarish	referat, taqdimot	oralik nazoratda
Budjetlararo munosabatlar: tashkil etish va rivojlanish yo'nalishlari	Budjetlararo munosabatlarni tashkil etish modellari	referat, taqdimot	mavzu yakunida
Budjet tiziminig rivojlanish bosqichlari	O'zbekiston Respublikasi budjet tiziminig rivojlanish bosqichlari va hozirgi zamon muammolari	taqdimot, keys-stadi	amaliy mashg'ulot davomida
Budjet qonunchiligi	O'zbekiston Respublikasi budjet qonunchiligi va	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
Budjet jarayoni uslubiyoti	Budjet jarayonini tashkil etish	tahliliy ish, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihasini tuzish: tashkil etish va isloh qilish	Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar budjetlari loyihasini tuzish	taqdimot, keys-stadi	oralik nazoratda

Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlash: tashkil etish va isloh qilish	Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar loyihasini tayyorlash	referat, taqdimot	oraliq nazoratda
Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash: tashkil etish va isloh qilish	Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ko'rib chiqish, qabul qilish va tasdiqlash	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
Budjet tizimi budjetlari ijrosi va ijrosi nazorati: tashkil etish va isloh qilish	Budjet tizimi budjetlari ijrosi va ijrosi nazoratining ahamiyati	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
Budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash	Budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash tartibi	referat, taqdimot	oraliq nazoratda
Budjet tizimi budjetlari daromadlarini optimallashtirish yo'llari va xarajatlarini takomillashtirish yo'nalishlari	Budjet tizimi budjetlari daromadlarini optimallashtirish yo'llari	referat, taqdimot	oraliq nazoratda
Davlat maqsadli fondlari: hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari	Davlat maqsadli fondlari daromadlari va harajatlari mutanosibligini ta'minlash	referat, taqdimot	amaliy mashg'ulot davomida
Davlat qarzini boshqarish: hozirgi amaliyoti va rivojlanish yo'nalishlari	Davlat qarzi va uni boshqarishning ahamiyati		

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

4.1. Reyting nazorati jadvali

Reyting nazorati turlari	Semestr haftalari																				Attestatsiya	Ballar	Saralash ballari
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20					
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39		
ON	0-17									0-18										0-35			
\sum (JN+ON)	0-70																						0-70
YaN																				0-30	0-30	0	
Jami	0-70																				0-30	0-100	56

Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin (18-19 haftalar qishki ta'til davri hisoblanadi).

Reyting nazorat i turlari	Semestr xaftalari																		Ballar	Saralash ballari	
	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40			Attestatsiya
JN	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39
ON	0-17						0-18							0-35							
\sum (JN+ON)	0-70																		0-70		
YaN																			0-30	0-30	0
Jami	0-70																		0-30	0-100	55

*Izoh: Semestr haftalari soni ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigiga muvofiq belgilanadi va farqlanishi mumkin.

4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JNda amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda magistrantning o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida 0-2 (yoki har hafta bo'yicha 0-6) ballgacha jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan.

4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 (har birida 0-17 /0-18) ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-17 /0-18 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. \sum (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

\sum (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		\sum (JN+ON)
	JN	ON	
“Budjet tizimi” fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda budjet tizimi bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	30-35	30-35	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda budjet tizimi bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi,	25-29	25-29	50-69

amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.			
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda budjet tizimi bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	20(19)-24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda budjet tizimi bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.5. YaN ni baholash mezonlari

YaN "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida (0-30) ballgacha belgilan mezon asosida yoki majmual shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi.

4.6. Talabalarning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlari

Talabalarning fan bo'yicha bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish 0-100 ballik reyting tizimi asosida quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

Talabani fanni o'zlashtirishini nazorat qilish mezonlari	Ballar
Budjet tizimi fani mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda «Budjet tizimi» bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	86-100
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda «Budjet tizimi» bilan bog'liq masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	71-85
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Budjet tizimi» bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega .	55-70
Fan mashg'ulotlari jami mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda «Budjet tizimi» bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-54

5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan, interfaol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalari va zamonaviy

komp'yuter texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, talabalar virtual huquqiy-me'yoriy hujjatlar kutubxonasi tizimi orqali budjet-moliyaviy qonunchilik yangiliklaridan xabardor bo'lishlari va o'qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

Fanni o'qitishda multemedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan Rowerpoint dasturidagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan, diaproektor va kadaskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida budjet munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

5.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Karimova Z.X., Djamalov X.N., Islamqulov A.X. Budjet tizimi. O'quv qo'llanma. "VORIS-NASHRIYOT". 2012. 208 b.

2. Вахабов А.В., Срожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т. "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2007.

3. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010, 595 b.

4. Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2007, 84b.

5. Malikov T., Xaydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2007, 245b

6. Malikov T., Xaydarov N. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2008, 98b.

7. Malikov T., Vahobov D., Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.

8. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

9. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi: Darslik. T. "infoCOM.UZ", 2010, 500 b.

10.Срожиддинова З.. Межбюджетные отношения. Издательство «ИнфоСОМ.УЗ». Ташкент-2010.

11.Srojiddinova Z.. Budjetlararo munosabatlar. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010.

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Qosimova G. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA"-2013.

2. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2012. 220 b.

3. Burxonov U. Davlat xaridi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010.

4. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009.

5. Haydarov M. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010.

6. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011.

7. Internet saytlari:

www.mf.uz

www.gov.uz

www.lex.uz

www.stat.uz

www.budget.ru

www.undp.uz

www.publicfinance.uz